



# IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 4**

**2026**

## **NARSISSIZMNING SOHALARARO TALQINI: MIFOLOGIYADAN ZAMONAVIY MADANIYATGACHA**

**Axmedova Aziza Komilovna**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, PhD, dotsent

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada narsissizm tushunchasining kelib chiqishi, uning psixologik, madaniy va adabiy talqinlari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Antik mifologiyadagi Narsiss obrazi asosida shakllangan ushbu hodisaning mohiyati psixoanalitik nazariyalar doirasida ochib beriladi. Z.Freyd, K.Yung va boshqa olimlarning qarashlari asosida sog'lom va patologik narsissizm o'rtasidagi farqlar yoritiladi. Shuningdek, narsissizmning zamonaviy jamiyatda, xususan, ommaviy madaniyat va matbuot ta'sirida kengayib borishi tahlil qilinadi. Adabiyot qismida esa narsissistik shaxs tipi badiiy obrazlar orqali, xususan, Sinkler Lyuis asarlari misolida tadqiq etiladi. Tadqiqot natijalari narsissizmning nafaqat individual, balki ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** narsissizm, psixoanaliz, shaxsiyat buzilishi, madaniyat, ommaviy axborot vositalari, badiiy obraz, Sinkler Lyuis.

## **НАРЦИССИЗМ В МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ПЕРСПЕКТИВЕ: ОТ МИФА К СОВРЕМЕННОЙ КУЛЬТУРЕ**

**Ахмедова Азиза Комиловна**

Узбекский государственный университет мировых языков, PhD, доцент

### **Аннотация**

В данной статье комплексно рассматривается понятие нарциссизма, его происхождение и интерпретация в психологии, культуре и литературе. На основе мифологического образа Нарцисса раскрывается сущность данного явления в рамках психоаналитических теорий. Особое внимание уделяется взглядам З. Фрейда, К. Юнга и других исследователей, а также разграничению здорового и патологического нарциссизма. Анализируется распространение нарциссизма в современном обществе под влиянием массовой культуры и средств массовой информации. В литературной части исследуется нарциссический тип личности на примере художественных образов, в частности произведений Синклера Льюиса. Результаты исследования демонстрируют, что нарциссизм выступает не только как индивидуальное, но и как социально-культурное явление.

**Ключевые слова:** нарциссизм, психоанализ, расстройство личности, культура, средства массовой информации, художественный образ, Синклер Льюис.

## **NARCISSISM IN INTERDISCIPLINARY PERSPECTIVE: FROM MYTH TO MODERN CULTURE**

**Akhmedova Aziza Komilovna**

Uzbekistan State World Languages University, PhD, Associate Professor

### **Abstract**

This article provides a comprehensive analysis of the concept of narcissism, its origins, and its interpretation in psychology, culture, and literature. Drawing on the mythological figure of Narcissus, the study explores the essence of narcissism within the framework of psychoanalytic theories. Particular attention is given to the ideas of Sigmund Freud, Carl Jung, and other scholars, as well as the distinction between healthy and pathological narcissism. The paper also examines the expansion of narcissism in modern society under the influence of mass culture and media. In

the literary section, the narcissistic personality type is analyzed through fictional characters, particularly in the works of Sinclair Lewis. The findings suggest that narcissism manifests not only as an individual trait but also as a broader socio-cultural phenomenon.

**Keywords:** narcissism, psychoanalysis, personality disorder, culture, mass media, literary character, Sinclair Lewis.

Narsissizm atamasining kelib chiqishi antik adabiyot bilan bog‘liq. Narsiss (Narkiss) yunon mifologiyasida tasvirlanishicha, xushsurat va navqiron yigit bo‘lib, daryo xudosi Kefisning o‘g‘lidir. U tog‘ nimfasi Exoning sevgisiga butunlay befarqlik bilan javob bergani tufayli Nemezida tomonidan jazolanadi. Kunlarning birida o‘z aksini daryoda ko‘rgan Narsiss o‘z husniga mahliyo bo‘lib, ochlik va tashnalikni ham unutadi, oqibatda o‘sha yerda halok bo‘ladi. Uning tanasi suvga g‘arq bo‘lib, o‘rnida nargis guli paydo bo‘ladi. Narsiss obrazi adabiyotda kibr va o‘z-o‘ziga bino qo‘yish ramziga aylangan.

Narsissizm psixiatriya darsliklarida shaxsiyat buzilishi sifatida ta‘riflangan. Garchi ushbu ruhiy holat insoniyatga azaldan ma‘lum bo‘lsa-da, ilk ilmiy ma‘lumot psixiatr Otto Kernberg tomonidan taqdim etilgan [1; 286-b.]. Sog‘lom narsissizm o‘ziga ishonch hissi sifatida namoyon bo‘lsa, nosog‘lom (patologik) narsissizm intellektual salohiyatdan qat‘i nazar, ruhiy-emotsional voyaga yetmaganlik, asab tizimining yuqori qo‘zg‘aluvchanligi, o‘z shaxsiga nisbatan haddan tashqari yuqori baho berish tarzida uchraydi. Sog‘lom narsissizm shaxsiga katta muvaffaqiyatlarga erishish imkonini bersa, nosog‘lom narsissizm yutuqlar bilan birgalikda insoniy munosabatlarda turli qiyinchiliklar, tushkunlik va boshqa ko‘ngilsizliklarga sabab bo‘ladi.

Ernest Jones 1913-yilda birinchi bo‘lib ekstremal narsissizmni talqin qildi va uni xarakterdagi nuqson sifatida “Xudo-kompleks” deb atadi. U Xudo-kompleksiga ega bo‘lgan odamlarni o‘zini o‘ta muhim deb hisoblovchi, haddan tashqari o‘ziga ishongan, avtoerotik, o‘zini ko‘z-ko‘z qiladigan, o‘zidan hayratlanadigan, hamma narsani bilaman va qila olaman deb hisoblaydigan shaxs sifatida tavsiflaydi [2].

Narsissizm haqidagi ilk manbalardan biri Z. Freydning “Narsissizm haqida: Kirish” (1914) asari bo‘lib, unda mazkur hodisa ruhiy patologiya sifatida ta‘riflangan. Xayns Koxut va Nensi Mak-Vilyams kabi psixoanalitiklar esa narsissizmning ilmiy ta‘rifini ishlab chiqqanlar. “Narsissizm o‘z egosiga qaram bo‘lgan shaxsiyat buzilishi bo‘lib, kishining o‘z tashqi ko‘rinishi yoki qiyofasiga haddan tashqari qiziqish bildirishi va ko‘pincha boshqalar hisobidan o‘z ehtiyojlari bilan haddan tashqari ovora bo‘lib qolishi shaklida namoyon bo‘ladi” [3]. Bugungi kunda narsissizm shaxsiyat buzilishi sifatida qator klinik tadqiqotlar obyekti bo‘lib kelmoqda. O‘ziga haddan tashqari yuqori baho berish, izzattalablik, boshqalarning his-tuyg‘ulariga nisbatan empatiyaning yo‘qligi va shuhratparastlik kabi xususiyatlar majmui narsissizmning yorqin belgilari hisoblanadi.

Karl Yung qarashlariga ko‘ra, narsissizm uchraydigan psixik inflyatsiya shunday jarayonki, unda muayyan individ ongi o‘z shaxsiyati chegaralarini ortiqcha “kengaytirib”, “to‘ldirib” yuboradi, o‘ziga tegishli bo‘lmagan sarhadlarni ham “o‘zlashtiradi”. Bunday “kengaytirish” natijasida individ o‘z shaxsiyatini boridan ko‘ra juda yuqori baholaydi, o‘z shaxsiga, “O‘zlik” hissiga nisbatan obyektiv, ratsional baholash ko‘nikmasi yo‘qolib boradi. O‘z shaxsi haqida norealistik tasavvurlar, olamni va o‘zini havoyi romantizm prizmasi orqali qabul qilish, insoniy munosabatlarda birovni (yoki o‘zini) ideallashtirish yoki, aksincha, o‘ta qoralash, real voqelikni o‘z istagiga moslab tushunish narsist tafakkuriga xos xususiyatlardir. Bunday xususiyat maxsus adabiyotlarda “magic thinking” [4; 240-b.] va “narcissistic fantasies” [5; 180-b.] tarzida berilgan.

Narsissizmni ijtimoiy fenomen sifatida tahlil qilgan Kristofer Lesh “The Culture of Narcissism” (“Narsissizm madaniyati”) asarida zamonaviy Amerika jamiyatida namoyon bo‘lgan xatti-harakat ustanovkalarini individual shaxs psixoanalizi bilan bog‘laydi. Zero, “Har bir jamiyat bolalikning umumbashariy inqirozlarini — onadan mustaqil bo‘lish qiyinchiligi, tashlab ketilish

qoʻrquvi, onaning sevgisi uchun boshqalar bilan raqobatlashish azobini — oʻziga xos tarzda hal qilishga harakat qiladi. Va bu psixik jarayonlar orqali individual xususiyatlarga ega shaxs, psixologik deformatsiyaning shunday shakli vujudga keladiki, uning yordamida individ instinktiv mahrumlik bilan murosa qiladi va ijtimoiy borliq talablariga boʻysunadi” [6; 34-b.].

Kristofer Leshning fikricha, har bir jamiyat individning oʻz “Men”ini topishida oʻziga xos, individual yoʻldan boradi. Shu bilan birga, har bir davr kishilariga xos boʻlgan muayyan ruhiy-patologik holat borki, u jamiyatdagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillarning natijasi oʻlaroq ommaning qiyofasida yorqin koʻzga tashlanadi. K. Lesh zamonaviy Amerika jamiyatida “narsissistik madaniyat” gullab-yashnayotganligini Ikkinchi jahon urushidan soʻng, xususan, 1970-yillarda Amerika jamiyatida barqaror boʻlgan hukumatning fuqaroni giperhimoyaga olishga qaratilgan kuchli paternalizm siyosati, yuqori industriallashgan davlatlarga xos boʻlgan fuqaroni potensial isteʼmolchiga aylantirish siyosati, ommaviy madaniyat taʼsirida targʻib qilinayotgan “oʻzing uchun yasha” tamoyili (*cult of privatism*) kabi omillar bilan bogʻlaydi.

Narsis shaxs tipi oʻzgalarning validatsiyasiga ehtiyoj his qilishi haqida maxsus adabiyotlarda qayta-qayta eʼtirof etilgan [6; 94-b.]. Bunday shaxs tipida atrofda insonlar fikriga tobelik kuchli boʻlib, aksariyat hollarda oʻzgalarning maqtovi va eʼtirofi ularning xatti-harakatlaridagi asosiy motivatsiyaga aylanib qoladi. Jumladan, jamiyatdagi nufuzli, muvaffaqiyatli, oliynasab shaxslar bilan muloqotga, aloqa bogʻlashga intilish ham (*cult of celebrity*) narsissizm belgisi sifatida namoyon boʻladi.

Sogʻlom narsissizm oʻziga ishonch hissi sifatida namoyon boʻlsa, nosogʻlom (patologik) narsissizm intellektual salohiyatdan qatʼi nazar, ruhiy-emotsional voyaga yetmaganlik, asab tizimining yuqori qoʻzgʻaluvchanligi, oʻz shaxsiga nisbatan haddan tashqari yuqori baho berish tarzida uchraydi. Sogʻlom narsissizm shaxsiga katta muvaffaqiyatlarga erishish imkonini bersa, nosogʻlom narsissizm yutuqlar bilan birgalikda insoniy munosabatlarda turli qiyinchiliklar, tushkunlik va boshqa koʻngilsizliklarga sabab boʻladi.

“Nosogʻlom narsissizm inson qilayotgan ishlari bilan emas, balki nimaga ega ekanligi, masalan, tanasi, tashqi qiyofasi, sogʻligʻi, boyligi bilan magʻrurlanadi... Insonning narsistik gʻururi — u ilgari orzu qilmagan buyumlar dunyosining yaratuvchisi boʻlish, radio, televideniye, atom energiyasi, koinotga parvoz kashfiyotchisi va hatto butun yer sharining potensial qirgʻinchisi boʻlish — oʻz-oʻzini koʻklarga koʻtarishga kuch berdi, narsissizmni oshirdi” [7; 62-b.].

Kristofer Leshning fikricha, matbuot narsissizmning ommalashuviga keng imkoniyat yaratib, uni jamoaviy narsissizmga aylantiradi. Zamonaviy yoshlarning xususiyatlari, avlodlar oʻrtasidagi farqlar borasida qator tadqiqotlar muallifi Jean Twenge “Narcissism Epidemic” asarida narsissizmning koʻproq yoshlar orasida raqamli texnologiyalar taʼsirida namoyon boʻlayotganligini asoslab beradi. Twenge va Campbell hammualliflikda yozgan mazkur asarda televideniye orqali targʻib etilayotgan materializmga oʻchlik hamda xudbinlik asnosida yoshlarda narsissizmni norma sifatida qabul qilishga sabab boʻlayotganligi ilgari surilgan. Realiti shoular taʼsirida shuhrat topish, qanday yoʻllar bilan boʻlmasin tanilish yoshlar uchun katta qadriyatga aylanib borayotganligi statistik maʼlumotlar bilan izohlab berilgan.

Yozuvchi badiiy mahoratining mezonlaridan biri sifatida hayot haqiqatiga sodiqlik ilgari suriladi. Bu, ayniqsa, realist yozuvchi uchun muhim mezon hisoblanadi. Yuqorida tavsiflangan narsissizm insonlar orasida tez-tez uchraydigan shaxsiyat turi ekan, uni badiiy obrazlar orasida ham uchratish mumkin. Chunonchi, Oskar Uayldning (1854–1900) mashhur Dorian Grey obrazi koʻplab ilmiy ishlarda narsissistik obraz sifatida talqin etilgan. Grey obrazidagi kibr, xudbinlik va empatiyaning yoʻqligi asarning turli epizodlarida, sohibjamol boʻlib qolish uchun har qanday qabihlikka tayyorligida, uni qattiq sevib qolgan aktrisa Sibila Veynni sovuqqonlik bilan tark etishida, rassom Bazilni oʻldirishida namoyon boʻladi. Asar qahramonining narsissizm nuqtayi nazaridan tahlili M. Blasining [8; 190-b.] ilmiy ishida oʻz aksini topgan boʻlib, tadqiqotchi oʻn toʻqqizinchi asr adabiyotining boshqa namunalarini ham shu jihatdan yoritgan. Shuningdek, ingliz yozuvchisi Jozef Konradning [9; 103–123-b.] qator romanlari (“The Secret Sharer”, “Heart of

Darkness”, “Lord Jim”, “Under Western Eyes”, “Victory”), D. H. Lourensning so‘nggi asarlari [10; 63–74-b.] ham narsissistik shaxsiyat buzilishi nuqtayi nazaridan o‘rganilgan. S. Lyuisning ham ayrim qahramonlarida narsissizm belgilari kuzatiladi.

Sinkler Lyuis asarlarida ruhiy inflyatsiya alomatlari bo‘lgan, o‘z egosini haddan tashqari ko‘klarga ko‘taradigan salbiy obrazlar bot-bot uchraydi. Jumladan, “Erousmith” (*Arrowsmith*) romanidagi Almus Pikkerbo tipik narsissizmga xos barcha xususiyatlar bilan tasvirlangan. Bu haqda oldingi boblarda to‘xtalغان edik. Yana bir yorqin narsis shaxs obrazi Lyuisning “Ish” (*Job*) romanida uchraydi. Janob Ros yirik tadbirkor, Una Goldenning rahbari. “...Unaga hisobotni diktovka qilish paytida janob Ros katta yog‘och stolga yaqin kelib, o‘zining tennisda, baliq ovlash turnirlarida, Plaza mehmonxonasida kichik, oqilona tushliklar buyurishda ustasi farang ekanligini tushuntirar edi. U ‘oqilona’ so‘zini qo‘llashni juda yoqtiradi. Har bir so‘zida stulini Una tomonga yanayam yaqinlashtirib, go‘yoki tuxumlarning bozor narxi haqida gapirayotgandek jiddiy qiyofada, ko‘zlariga tik boqib, J. P. Morgan, Burbank, Uilliyam Rudolf Hirst uni (Rosni — A. A.) qanchalar maqtaganliklarini; elektr, toksikologiya, Yavadagi qurbaqalar haqida dunyoda hech kim u kabi bilmasligini aytadi. U biznesning nafaqat ustasi, shuningdek, ulamosi. Unaning eng katta vazifasi janob Rossni buyuk inson, juda-juda buyuk inson, ya‘ni Rosning o‘zi o‘ylaganchalik buyuk shaxs ekanligini e‘tirof etib turishdan iborat edi. Unadek o‘ta samimiy inson uchun bu eng mashaqqatli vazifa bo‘lib chiqdi” [11; 226-b.].

“Gideon Plenish” (1943-y.) romani aksilqahramoni Gideon Plenish obrazida narsissizm belgilari yorqin gavdalantirilgan. Bebbit obrazining davomi sifatida yuzaga kelgan mazkur obraz orqali muallif xayriya tashkilotlaridagi maxinatsiyalarni fosh etadi.

Gideon Plenishning o‘z kelajagi haqidagi tasavvurlari ancha katta, jumladan, u o‘zining hayotdagi missiyasini quyidagicha tasavvur qiladi: “U Yaxshi Odam bo‘ladi, bu nobakor foni dunyoga birodarlik va demokratiya, turfa sabzavotlarning muntazam iste‘moli haqida Xabar olib keladi” [12; 32-b.]. Plenishning ilohiy missiyasi haqidagi tasavvurlari va real turmushini qiyosan aks ettirar ekan, Lyuis satirik effekt yaratadi. Maishiy turmushda ham, kasbida ham Plenish ilohiy missiyasidan butunlay farqli. Ta’sirdor nutqida Gideon Plenish haqiqat uchun emas, munozaraning o‘zi uchun manfaatli tomoniga qarab yon bosadi; masalan, u sufrajizmni maqtashi ham mumkin, qoralashi ham mumkin. Plenish vaziyatga qarab riyokorona o‘zgaradi, so‘zlarini moslashtiradi. Bebbit va Elmer Gentri obrazlarining muvaffaqiyatli chiqishida komik monologlar muhim rol o‘ynagan edi. Plenish obrazining ham salbiy jihatlarini muallif uning nutqi orqali yuzaga chiqaradi. Nutqida Plenish ilgari surayotgan “birodarlik”, “insonparvarlik”, “rahm” uning o‘zi uchun shunchaki so‘zlar bo‘lib, ichki qadriyatga aylanmaydi, harakatlarida amaliy ifodasini topmaydi. Ya‘ni Plenishning shaxsi soxta qurilgan “constructed self” bo‘lib, bunday xususiyat Plenishga ommaga ma‘qul bo‘lish uchun zarur. “The Presentation of Self in Everyday Life” asarida I. Goffman hayotni teatrda o‘xshatib, insonlarning harakatlarini “sahnadagi” (shaxsning ijtimoiy hayoti) va “sahna ortidagi” (asl tabiati)ga tasniflaydi. Plenish shaxsining sahnadagi va sahna ortidagi o‘zligi boshqa-boshqa qiyofalar ekanligi obrazning riyokorligidan dalolat beradi, asarni satiradan ham ko‘ra farsga yaqinlashtiradi.

Mazkur maqolada narsissizm fenomeni mifologik ildizlardan boshlab zamonaviy ilmiy va madaniy kontekstgacha bo‘lgan sohalararo yondashuv asosida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, narsissizm nafaqat psixologik shaxsiyat buzilishi sifatida, balki ijtimoiy-madaniy jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq murakkab fenomen sifatida ham namoyon bo‘ladi. Psixoanalitik nazariyalar, madaniy tahlillar hamda adabiy misollar asosida sog‘lom va patologik narsissizmning farqlari ochib berildi. Ayniqsa, ommaviy madaniyat, matbuot va raqamli muhitning ta’siri narsissistik xatti-harakatlarning kengayishiga zamin yaratishi aniqlandi. Adabiy obrazlar, xususan, Sinkler Lyuis asarlaridagi qahramonlar tahlili orqali narsissizmning badiiy ifodasi ham yoritildi. Umuman olganda, narsissizmning ko‘p qirrali tabiati uni turli fanlar kesimida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

23. Kernberg O. F. *Borderline Conditions and Pathological Narcissism*. — New York: Jason Aronson, 2004 (reprint). — 286 p.
24. Jones M. D. *Essays in Applied Psychoanalysis*. Vol. 2. — Osmania University Library.
25. Narcissism // Oxford Learner's Dictionaries [Elektron manba]. — URL: <https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/english/narcissism?q=Narcissism>
26. Hotchkiss S. *Why Is It Always About You?: The Seven Deadly Sins of Narcissism*. — New York: Simon & Schuster, 2008. — 240 p.
27. Akhtar S. *Comprehensive Dictionary of Psychoanalysis*. London: Karnac Books, 2009. P. 180.
28. Lasch C. *The Culture of Narcissism: American Life in an Age of Diminishing Expectations*. — New York: W. W. Norton & Company, 1991. — P. 34.
29. Фромм Э. *Душа человека*. — М.: ООО «Издательство АСТ-ЛТД», 1998. — С. 62.
30. Blasi M. *Narcissism in Nineteenth Century Literature*: PhD thesis. — New York: City University of New York, 2001. — 190 p.
31. Alcorn M. W. Conrad and the narcissistic metaphysics of morality // *Conradiana*. — 1984. — No. 16(2). — P. 103–123.
32. Edwards D. The problem of narcissism in Lawrence's late fiction // *The D. H. Lawrence Review*. — 1993. — No. 25(1/3). — P. 63–74.
33. Lewis S. *The Job*. — New York: Harper & Brothers, 1917. — P. 226.
34. Lewis S. *Gideon Planish*. — London: CreateSpace Independent Publishing Platform, 2017. — 560 p.
35. Freud S. On narcissism: an introduction // *The Standard Edition of the Complete Psychological Works of Sigmund Freud*. Vol. 14. — London: Hogarth Press, 1957. — P. 73–102.
36. Jung C. G. *The Archetypes and the Collective Unconscious*. — Princeton: Princeton University Press, 2014 (reprint of 1959 ed.). — 451 p.
37. Twenge J. M., Campbell W. K. *The Narcissism Epidemic: Living in the Age of Entitlement*. — New York: Atria Books, 2009. — 304 p.
38. American Psychiatric Association. *Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders: DSM-5-TR*. — Washington, DC: APA Publishing, 2022. — 1050 p.
39. Campbell W. K., Miller J. D. (eds.). *The Handbook of Narcissism and Narcissistic Personality Disorder*. — Hoboken: Wiley, 2011. — 536 p.
40. Malkin C. *Rethinking Narcissism: The Secret to Recognizing and Coping with Narcissists*. — New York: Harper Perennial, 2015. — 304 p.
41. Morf C. C., Rhodewalt F. Unraveling the paradoxes of narcissism: a dynamic self-regulatory processing model // *Psychological Inquiry*. — 2001. — Vol. 12, No. 4. — P. 177–196.
42. Pincus A. L., Lukowitsky M. R. Pathological narcissism and narcissistic personality disorder // *Annual Review of Clinical Psychology*. — 2010. — Vol. 6. — P. 421–446.
43. Campbell W. K., Foster J. D. Narcissism and commitment in romantic relationships // *Journal of Personality and Social Psychology*. — 2002. — Vol. 83, No. 6. — P. 1250–1265.
44. Konrath S., O'Brien E. H., Hsing C. Changes in dispositional empathy in American college students over time: a meta-analysis // *Personality and Social Psychology Review*. — 2011. — Vol. 15, No. 2. — P. 180–198.
45. Lasch C. Cultural narcissism revisited in modern theory: emotional capitalism context // In: Illouz E. *Cold Intimacies: The Making of Emotional Capitalism*. — Cambridge: Polity Press, 2007. — P. 1–224.
46. Lewis S. *Arrowsmith*. — New York: Modern Library Edition, 2002 (reprint of 1925 novel). — 445 p.
47. Lewis S. *Babbitt*. — New York: Modern Library Edition, 2003 (reprint of 1922 novel). — 324 p.
48. Goffman E. *The Presentation of Self in Everyday Life*. — London: Penguin Modern Classics, 2021 (reprint). — 256 p.